

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Mavzu: Xitoy tilida bog‘lovchilar

5220100-Filologiya

Bajardi: Xitoy filologiyasi kafedrası IV kurs

talabasi Yunusov Ismoil

Ilmiy rahbar: Xitoy filologiyasi kafedrası

o‘qituvchisi Mavlyanova Umida

Ilmiy maslahatchi: Xitoy filologiyasi katta

o‘qituvchisi f.f.n. Nosirova Saodat

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA :

KIRISH.....	3
I Bob. Bog‘lovchilar haqida umumiy ma’lumot va ularning guruhlariga bo‘linishi	9
1.1.Ma’nosi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar.....	9
1.2.Tuzilishi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar.....	18
1.3.Qo‘llanilishi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar.....	21
II bob. Xitoy tilida bog‘lovchilarning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari ...	27
2.1. Yuklamali va ko‘makchili bog‘lovchilar.....	29
2.2.Xitoy tilida ko‘p uchraydigan bog‘lovchili konstruksiyalar.....	39
XULOSA.....	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	48
ILOVA.....	51

KIRISH

“Mamlakatimizda hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashining o‘zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzuimizning ro‘yobga chiqishida zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi”.¹

Karimov I.A.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, yurtimizda demokratik jamiyatga asos solina boshlandi. Bu tuzum jarayonlari mazmun va mohiyatiga ko‘ra avvalgi jarayonlardan tubdan farq qilib, ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida o‘z aksini topmoqda. Sodir bo‘layotgan ushbu jarayonlar ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazib, ularda ushbu jarayonlarni ifodalaydigan ma‘no va tushunchalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu o‘zaro munosabat natijalari har qaysi fanda o‘ziga xos tarzda ifodalanib bormoqda. Chunonchi, jamiyat bilan tilshunoslik o‘rtasidagi munosabat bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o‘zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma‘naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan-yangi ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san‘at, umuman ma‘naviyatning ahamiyati, shubhasiz, benihoya kattadir.

Zero, davlatning kuch-quvvatini, istiqboli porloq bo‘lishini, jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va mavqeini odamlarning intellektual salohiyati, aqliy jihatdan yetuk va barkamolligi belgilaydi. Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich

¹Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari.- T., Sharq, 1997. - 142b.

Karimov tomonidan ta'kidlanishicha, "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat — ma'rifatli insonning ikki qanotidir".² Xalq va millatning ma'naviy, ruhiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi hamda ta'minlovchi asoslardan biri esa badiiy adabiyotdir. Millat ma'naviyatini bir-biri bilan uzviy aloqadorligi va aks ta'sir jarayonlari uzoq tarixiy an'anaga ega. Boshqa xalqlar bilan do'stona munosabat qilish va ilg'or tomonlarini o'rganish o'zbek xalqi ma'naviyatiga xos bo'lgan xususiyatdir.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi O'zbekistonga o'zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish, jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lishining o'z strategiyasini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo'nalishlari va ustuvorligini belgilash imkonini berdi. Mamlakatimizning Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1992-yilning 2-yanvaridan bugungi kungacha hamkorlik munosabatlari samarali rivojlanib kelmoqda. Ushbu do'stona munosabatlar tufayli savdo va iqtisodiy sohalarda bitimlar imzolandi. Zarur resurslarni, xalq iste'moli mollarini yetkazib berishdan tortib, mehmonxonalar qurish, sog'liqni saqlash, dori-darmonlar ishlab chiqarish, noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilishgacha keng ko'lamdagi siyosiy, diplomatik va madaniyat sohalarida ham jiddiy o'zaro manfaatlarning mavjudligi, shu munosabatlarni chuqurlashtirishga ko'maklashmoqda. Hozirgi kunda ana shu omillar xitoy tilini O'zbekiston hududida keng ko'lamda o'rganilishni taqozo qilmoqda.

Boshqa chet tillari kabi xitoy tilini yanada chuqur o'rganishda leksikoloya sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'rganilayotgan tilning leksikasidagi

²Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. — T., O'zbekiston, 1996. - 34 b.

o'zgarishlar va yangiliklarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish o'quvchining bilim saviyasini yanada oshiradi. Shu sababli bizning bitiruv malakaviy ishimiz aynan xitoy tiling morfologiya bo'limiga asoslangan. Bunda biz xitoy tilida tahliliga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Xitoy tilida bog'lovchilarning grammatik xususiyatlarini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Bog'lovchilarning guruhlarga bo'linishi va boshqa so'z turkumlarining bog'lovchilar vazifasida qo'llanilishi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi:

Xitoy tilida bog'lovchilarning umumiy xarakteristikasi va ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini aniqlash.

Xitoy tilida bog'lovchilarning tuzilish va ishlatilish qoidalarini, ular o'rtasidagi mavjud o'xshashliklar va farqlarni, ularning alohida va birgalikda qo'llanilishini ko'rsatish.

Xitoy tilidagi bog'lovchilarning qo'shma gaplar tarkibida ishlatilishida umumiy va ayrim o'ziga xos xususiyatlarning ifodalanishini, shu bilan birgalikda bog'lovchilarga xos alomatlar va qo'shimcha ma'nolarni aniqlash.

Bitiruv malakaviy ish oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish ko'zda tutilgan:

Xitoy tilidagi bog'lovchilar haqida umumiy ma'lumot berish.

Xitoy tilida bog'lovchilarni guruxlarga bo'linishini aniqlash va ushbu guruhlarni tashkil qiluvchi bog'lovchilarni ko'rsatib berish.

Xitoy tilida bog'lovchilarning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini yoritib berish.

Xitoy tilida yuklamali bog'lovchilar o'rganib tahlil qilish.

Xitoy tilida predlog va ko'makchilarning bog'lovchi sifatida qo'llanilishini yoritib berish.

Xitoy tilida ko'p uchraydigan bog'lovchili konstruksiyalarni aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi: Xitoy tilida bog'lovchilarning grammatik xususiyatlarini o'rganish jarayonida bir qancha tillarda yozilgan kitoblarga murojat qilindi. Masalan: o'zbek xitoyshunoslaridan filologiya fanlar nomzodi, dotsent Karimov A. ning maqolalari va folologiya fanlari nomzodi Nosirova S.hamda filologiya fanlar nomzodi, dotsent XoshimovaS. larning "Xitoy tili grammatikasi", xitoy tilidagi "何世达现代汉语 , 语法点速记速练", Горелов В.И. "Теоретическая грамматика китайского языка", Горелов В.И. "Союзы в сложном предложении современного китайского литературного языка" kabi bir qancha kitoblardan kerakli ma'lumotlarni olib, ularni kengroq yoritib berishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: maktablarda, kollej-litseylarda va oliy o'quv yurtlarida, nazariy grammatika kurslari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, shuningdek amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, xitoy tilida bog'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini ya'ni ularni guruhlariga bo'lib o'rganilishi, boshqa so'z turkumlari ham bog'lovchilar vazifasida qo'llanilishi va ularning natija va xulosalari nazariy grammatika fanlarining nazariyasini boyitadi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodlari. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun to'plangan ma'lumotlar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo'llanilayotgan struktural, tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, chog'ishtirish metodlari yordamida tahlil etildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: ushbu mavzu bilan bog'liq rus va xitoy tilidagi manbalar o'zbek tilida ilmiy muomalaga kiritildi. Xitoy tilida bog'lovchilarning grammatik xususiyatlari o'zbek tiliga tarjima qilindi va ularni guruhlariga bo'lib o'rganildi.

Gap tuzilishida bog‘lovchilarning ahamiyati katta, ayniqsa murakkab gaplarni tuzilishini bog‘lovchilarsiz tasavvur qilish qiyin. Gaplarni bir-biriga bog‘lashda, ularni mazmunli, ma’noli tuzilishga ega bo‘lishida ham bog‘lovchilarning o‘rni beqiyos.

Bog‘lovchilar ko‘makchi so‘zlar bo‘lib, biriktiruvchi, zidlovchi, bo‘linuvchi, tenglashtiruvchi, biror maqsadli, sabab, to‘siq, munosabatda bo‘luvchi(aloqa), shuningdek o‘xshashlik va bir xillik munosabatlarini bog‘lashda qo‘llaniladigan bog‘lovchilarga bo‘linadi.

Ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va xol gapda uyushiq bo‘laklar bo‘lib kelganda bog‘lovchilar qo‘llaniladi. Bog‘lovchilar bog‘langan qo‘shma gap va ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lashda, shuningdek gapning ergashgan qismida ishlatiladi.

Xitoy tilida bog‘lovchilarning kelib chiqishi jixatidan xuddi predloglar (old qo‘shimchalar)dek etarlicha muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘pgina tadqiqotlar isbotlab bergan. Shu bilan birga “Xitoy tili grammatikasi”³ kitobida Bichurin N.Ya. “ko‘pgina bog‘lovchilar fe’llardan tashkil topgan bo‘lib, gaplarda joylashishiga qarab o‘z ma’nosini o‘zgartiradi” deb ta’kidlab o‘tgan.

Fe’llik funksiyasini o‘zida saqlab qolgan bog‘lovchilar zamonaviy xitoy tilida kam uchraydi. Masalan: 象 xiàng (fe’l→ predlog→ bog‘lovchi) shunga o‘xshash→ o‘xshab...,xuddi va...→ o‘shanga o‘xshab, xuddi...; 使 shǐ (to‘la ma’noli fe’l→ undovchi fe’l→ bog‘lovchi) SHunga olib kelmoq, nima...; 要 yào (to‘la ma’noli fe’l→ modal fe’l→ undovchi fe’l→ bog‘lovchi) hoxlamoq, hoxlamoq, uchun...→ agar va boshqalar.

Ayrim bog‘lovchilarning etimologiyasini ko‘rib fe’llardan kelib chiqqanligini bilish mumkin. Masalan zamonaviy 但 dàn bog‘lovchisini kelib chiqishini Van Li

³ Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка.- М: Просвещение 1989.

独 dú, 特 tè, 徒 tú “chegaralab qo‘ymoq” fe‘llariga borib taqaladi, 如 rú bog‘lovchisini mos kelmoq, muvofiq bo‘lmoq fe‘llaridan, 并 bìng bog‘lovchisini esa, yonida turmoq, birga yashamoq, degan fe‘llardan kelib chiqqan deb ta’kidlab o‘tgan.

Murakkab sintaktik birliklarda, gap birliklarida xar hil vositalarning xar tomonlama ifodalanishida; ularning morfologik xarakteristikasi, ishlatilish xususiyatlari, ular o‘rtasidagi mavjud o‘xshashliklar va farqlar, ularning alohida va birgalikda qo‘llanilishi, nihoyat, grammatik til vositalarining hamma tizimlarining asta sekin rivojlanishida xar hil darajadagi muxokamaliklar - bularning hammasi uchun berilgan savollar, ular ustida ishlash uchun muhim qiziqish uyg‘otadi⁴.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Malakaviy ishimiz ikki bob va boblar asosida kichik bo‘limlardan hamda xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat.

Kirishda malakaviy ish mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, ishning yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiq etish usullari, maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Birinchi bob “Bog‘lovchilar haqida umimiy ma’lumot va ularning guruhlariga bo‘linishi” deb nomlanadi. Ushbu bob uch bo‘limdan iborat bo‘lib, ularda bog‘lovchilarning ma’no, tuzulishi va qo‘llanilishi bo‘yicha turlari haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchi bob “Xitoy tilida bog‘lovchilarning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari” deb nomlanadi. Ushbu bob ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, ularda bog‘lovchilarning grammatik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Xulosada tadqiq etilgan materillar tahlilidan kelib chiqib asosiy natijalar , nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etilgan.

⁴Горелов В.И. Союзы в сложном предложении современного китайского литературного языка.- М: 1958.

I. BOB. BOG‘LOVCHILAR HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOT VA ULARNING GURUHLARGA BO‘LINISHI

Bog‘lovchilarning guruhlarga bo‘linishi

Bog‘lovchilarning guruhlari: Xitoy tilida bog‘lovchilar asosan 3ta guruhga bo‘linadi ya’ni:

1. Ma’nosi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar
2. Tuzilishi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar
3. Qo‘llanilishi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar

1.1. Ma’nosi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar

Ma’nosi bo‘yicha hosil qilinuvchi boglovchilar 9ta turga bo‘linadi. Har bir tur o‘zining sintaksis xususiyatiga ega.

Biriktiruvchi bog‘lovchilar:

✓ 和 hé, 并 bìng -va, ham; 而且 érqiě va, va shunga ko‘ra;

✓ 不但。。。并且 bùdàn。。。bìngqiě, 不仅。。。而且 bùjǐn。。。。

érqiě - nafaqat..... balki, nafaqat.....biroq va shunga ko‘ra va boshqalar.⁵

Bu bog‘lovchilar gapning uyshuq bo‘laklarida va bog‘langan qo‘shma gaplarda ishlatiladi.

1. 我去阅览室看书和画报。

Wǒ qù yuèlǎnshì kàn shū hé huàbào

Men o‘quv xonasiga kitob va rasmlı jurnal o‘qishga boraman.

2. 儿子已经十五岁了,并且女儿已经十岁了。

Ér zı yǐjīng shíwǔ suile, bìngqiě nǚér yǐ jīng shísuile.

⁵Горелов В.И. Союзы в сложном предложении современного китайского литературного языка.- М: 1958. с21..

O'g'lim allaqachon 15 yoshga to'lgan, shu bilan birga qizim ham allaqachon 10 yoshga to'lgan.

3. 我想并能继续学习汉语！

Wǒ xiǎng bìng néng jìxù xuéxí hànyǔ.

Men xitoy tilini o'qishni davom ettira olaman.

Zidlovchi bog'lovchilar:

✓ 但 dàn, 但是 dànshì, 可是 kě shì, 然而 ránér-ammo, lekin, biroq;

✓ 不是。。。而是 bùshì。。。érshì – yo'q.....biroq va boshqalar.

Bu bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarida shuningdek bog'langan qo'shma gaplarda ishlatiladi.

1. 我听说过这个名字,可是不知道是谁。

Wǒ tīngshuō guò zhège míngzì kěshì bù zhīdào shì shuí.

Men bu ismni eshitganman, lekin kimligini bilmayapman.

2. 试验失败了很多次,然而他们并没有失去信心。

Shìyàn shī bài le hěnduō cì, ránér tāmen bìng méi yǒu shīqù xìnxīn.

Sinovdan ko'p marotaba yiqilishdi, biroq o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotishmadi.

3. 我会帮助你,但是我不知道我该做什么。

Wǒ huì bāngzhù nǐ, dànshì wǒ bù zhīdào wǒ gāi zuò shénme.

Men senga yordam bera olaman, lekin nima qilishim kerakligini bilmayapman.

Bo'linuvchi bog'lovchilar:

➤ 或 huò, 或者 huòzhě, 还是 háishì-yoki, balki;

➤ 或者。。。或者 huòzhě。。。huòzhě, 还是。。。还是 háishì。。。.

háishì -yoki.....yoki, balki.....balki va boshqalar.

Bu bog‘lovchilar gapning uyushiq bo‘laklarida shuningdek bog‘langan qo‘shma gaplarda ishlatiladi.

1. 我晚上看画报或者复习课文。

Wǒ wǎnshang kàn huàbào huòzhě fùxí kèwén

Men kechqurun rasmlı gazeta o‘qıman yoki tekstni qaytaraman.

2. 你晚上看电视还是复习课文？

Nǐ wǎnshang kàn diànshì háishì fùxí?

Sen kechqurun telvızor ko‘rasanmi yoki tekstni qaytarasanmi?

3. 我不知道,他去商店还是邮局。

4. Wǒ bù zhidào, tā qù shāngdiàn hái shì yóujú.

Men bilmayman, u magazinga boradimi yoki pochtagami.

Tenglashtiruvchi bog‘lovchilar:

❖ 如果。。。则 rúguǒ。。。zé, 如果。。。那么 rúguǒ。。。nàme -
agar.....o‘sha;

❖ 不是。。。就是 bùshì。。。jiùshì, 不是。。。便是 bùshì。。。biànshì
- agar yo.....o‘sha va boshqalar.⁶

Bu bog‘lovchilar gapning uyshuq bo‘laklarida va bog‘langan qo‘shma gaplarda qo‘llaniladi.

1. 如果觉得这本书难,那么就换一本。

Rúguǒ juéde zhè běn shū nán, name jiù huàn yì běn.

Agar bu kitobni murakkab deb bilsang, u holda boshqasiga almashtir.

2. 如果你在书中仔细寻找,那么你一定找到对你有用的东西

Rúguǒ nǐ zài shū zhōngzǐ xìxún zhǎo nàme nǐ yíding néng zhǎodào duì nǐ yǒu

⁶Горелов В.И. Союзы в сложном предложении современного китайского литературного языка.- М: 1958.c22

yòng de dōngxī.

Agar sen kitobdan diqqat bilan qidirsang u holda sen albatta foydali narsalarni topasan.

3. 如果你不能改正错误,那你怎么进步呢?

Rúguǒ nǐbù néng gǎizhèng cuòwù , nà nǐ zěnmē jìnbù ne?

Agar sen xatoyingni to'g'irlamasang, u holda qanday qilib yuksalasan?

Maqsad bog'lovchilari:

- 为 wèi, 为了 wèile, 为的是 wèideshì, 以 yǐ, 以便 yǐbiàn - uchun, nimadir uchun va boshqalar.

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gaplarda va gaplarning ergashgan qismi bilan qo'llaniladi.⁷

1. 大家现在努力工作,为的是以后生活得更好。

Dàjiā xiànzài nǔlì gōngzuò, wèide shì yǐhòu shēnghuó dé gèng hǎo.

Keyinchalik hayotligi yana ham yaxshi bo'lishi uchun, hamma hozir tirishqoqlik bilan ishlayapti.

2. 我这次来北京,为的是学好汉语。

Wǒ zhè cì lái Běijīng, wèide shì xué hǎo hànyǔ.

Meni bu safar Pekinga kelishimdan maqsad - xitoy tilini o'rganish.

3. 麦克努力工作,为的是挣更多的钱买房,买车。

Màikè nǔlì gōngzuò, wèide shì zhèng gèng duō de qián mǎi fáng, mǎi chē.

Ko'proq pul ishlab topib, uy, mashina sotib olishi uchun Mayk tirishqoqlik bilan ishlayapti.

Sabab bog'lovchilari:

- 因 yīn, 因为 yīnwei, 由于 yóuyú, 为了 wèile-chunki, sababli, tufayli, uchun;

⁷外国人实用汉语语法.-北京. 2009 年-114.页.

- 因为。。。所以 yīnwēi。。。suǒyǐ, 由于。。。因而 yóuyú。。。yīnér
- chunki.....u holda, sababli va boshqalar.⁸

Bu bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gaplarda shuningdek gaplarning ergashgan qismii bilan ishlatiladi.

1. 因为好久没有雨,所以蔬菜都黄了。

Yīnwéi hǎo jiǔ méi yǒu yǔ, suǒyǐ shūcài dōu huáng le.

Anchadan beri yomg‘ir yo‘qligi sababli sabzavotlarning hammasi sarg‘ayib ketdi.

2. 他因为要在中国工作,所以学习汉语。

Tā yīnwéi yào zài Zhōngguó gōngzuò, suǒyǐ xuéxí hànyǔ.

U Xitoyda ishlashi kerakligi sababli, xitoy tilini o‘qiyapti.

3. 最近天气很冷,所以很多人感冒了。

Zuìjìn tiānqì hěn lěng, suǒyǐ hěn duōrén gǎnmào le.

Oxirgi kunlarda ob-havo judayam sovub ketganligi sababli ko‘p odam shamollab qoldi.

4. 在这儿一个人都不认识,所以我很想家。

Zài zhè er yí gè rén dōu bú rènshí, suǒyǐ wǒ hěn xiǎng jiā.

Bu erda hech kimni tanimaganim sababli, uyimni sog‘indim.

5. 因为昨天晚上睡得很晚,所以他今天 8 : 30 才起床。

Yīnwéi zuótīān wǎnshang shuì dé hěn wǎn, suǒyǐ tā jīntiān ba diǎn ban cái qǐchuáng.

Kecha kechqurun kech uxlaganligi sababli, u bugun sakkiz yarim bo‘lgandagina o‘rnidan turdi.

6. 因为教室里的空调坏了,所以同学们把窗户打开了。

⁸外国人实用汉语语法.-北京. 2009 年.-115.页.

Yīnwéi jiàoshì lǐde kōngtiáo huài le, suǒyǐ tóngxué men bǎ chuānghu dǎ kāi le.
O‘quv xonasida konditsioner buzilib qolganligi sababli, kursdoshlarim derazalarni
ochib qo‘ydilar.

7. 由于工作关系,老王要去一趟云南。

Yóuyú gōngzuò guānxì, lǎowáng yào qù yítàng Yúnnán.

Ishi munosabati bilan, qariya Van YUn Nanga bir marotaba borishi kerak.

8. 由于得到了专家的帮助,所以我们的研究工作进行得很顺利。

Yóuyú dé dào le zhuānjiā de bāngzhù, suǒyǐ wǒmen de yánjiū gōngzuò jinxing dé
hěn shùnlǐ.

Mutaxassis yordami tufayli, bizlarni tadqiqot ishimiz judayam muvofaqqiyatli
bo‘ldi.

9. 他今天没上课是由于他生病了。

Tā jīntiān méi shàng kè shì yóu yú tā shēngbìng le.

Uning bugun darsda bo‘lmaganligini sababi, u kasal bo‘lib qolgan edi.

10. 汉语越来越热是由于中国在世界上的地位越来越重要。

Hànyǔ yuèlái yuè rè shì yóuyú Zhōngguó zài shìjiè shang de dìwèi yuèlái yuè
zhòng yào.

Xitoy tilini borgan sari tanilib borayotganini sababi Xitoy dunyoning barcha
erlarida borgan sari muhim bo‘lib bormoqda.

Shart bog‘lovchilari:

- 要 yào, 若 ruò, 倘 tǎng, 要是 yàoshì, 若要 ruòyào, 倘然 tǎngrán-agar, agar
bo‘lganda;
- 如果 rúguǒ agar haqiqatda;
- 倘使 tǎngshǐ, 假如 jiǎrú-agar, taxmin qilinsa;
- 既然 jìrán agar, agar yaqinda;

- 就是 jiùshì agar xatto;
- 即使 jíshǐ xatto agar yo‘l qo‘yilsa;
- 只要 zhǐyào agar faqat; 如。 。 。 则 rú。 。 。 zé, 要是。 。 。 那 yàoshi。 。 。 nà, 如果。 。 。 那么 rúguǒ。 。 。 nàme - agarda.....o‘sha;
- 既然。 。 。 于是 jìrán。 。 。 yúshì agar.....o‘sha va boshqalar.

Bu bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gaplarda va gaplarning ergashgan qismi bilan qo‘llaniladi.⁹

1. 要是不想今天去,那(么)就明天去吧。

Yàoshi bù xiǎng jīntiān qù, nà (me) jiù míngtiān qù ba.

Agar bugun borishni hoxlamasang unda ertaga bor.

2. 既然你一定要去,我也不说什么了,不过你千万要小心。

Jìrán nǐ yídìng yào qù wǒ yě bù shuō shénme le, bú guò nǐ qiān wànyào xiǎoxīn. Modomiki sen albatta borishing kerak ekan, men nima deyishni ham bilmayapman, biroq sen ehtiyot bo‘lishing shart.

3. 事情既然已经发生了,后悔有什么用呢?

Shìqíng jìrán yǐjīng fāshēng le, hòuhuǐ yǒu shénme yòng ne?

Ish modomiki allaqachon sodir bo‘lgan ekan, afsus qilishning nima keragi bor?

4. 如果你们的产品出了问题,只要您打个电话,我们就会上门修理。

Rúguǒ nǐmen de chǎnpǐn chū le wèntí, zhǐyào nín dǎ gè diànhuà wǒmen jiù huì shàngmén xiūlǐ.

Agar sizlar mahsulotingizni chiqarayotganingizda muammo bo‘lsa, faqat siz telefon qiling, biz darhol ta‘mirlab beramiz.

⁹外国人实用汉语语法.-北京 2009 年.117.页.

5. 只要你是这个学校的学生, 就应该遵守这儿的纪律。

Zhǐyào nǐ shì zhè ge xuéxiào de xuésheng, jiù yīnggāi zūnshǒu zhè er de jìlǜ.

Agar sen shu maktabning o‘quvchisi bo‘lsang, bu erning intizomiga rioya qilishing kerak.

6. 要指导下雨, 我就带雨伞来了。

Yào zhǐdǎo xià yǔ wǒ jiù dài yǔ sǎn lái le.

Yomg‘ir yog‘ishi kerakligini bilib, men soyabonimni olib keldim.

7. 要不是走错了路, 我们早到了。

Yào bú shì zǒu cuò le lù, wǒmen zǎo dào le.

Agar ko‘chada borayotganimizda muammo bo‘lmasa, bizlar erta etib boramiz.

8. 就是/即使老师不一定认识这个汉子。

Jiù shì /jí shǐlǎoshī bù yīdìng rènshi zhè ge hànzi.

Hatto o‘qituvchi bu iyeroglifni aniq tanimasligi mumkin.

9. (就是) 冬天他也敢在河里游泳。

Dōngtiān tā yě gǎn zài hé lǐ yóuyǒng.

(Hatto) qishda ham u daryoda cho‘milishga jur’ati etadi.

To‘siq bog‘lovchilari:

✓ 虽 suī, 虽然 suīrán, 尽管 jǐnguǎn-bo‘lsa ham, garchi;

✓ 纵 zòng, 纵然 zòngrán, 哪怕 nǎpà-mayli, bo‘lsa ham;

✓ 虽。。。然 suī。。。rán, 虽然。。。但 suīrán。。。dàn, 虽然。。。可是 suīrán。。。kě shì, 尽管。。。但是 jǐnguǎn。。。dànshì-bo‘lsa ham.....lekin, garchi.....biroq va boshqalar.

Bu bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gaplarda shuningdek gaplarning ergashgan qismi bilan qo‘llaniladi.¹⁰

1. 虽说我现在住的地方离学校比较远,可是房租便宜,环境也不错。

Suī shuō wǒ xiànzài zhù de dìfāng xuéxiào bǐjiào yuǎn, kěshì fángzū piányi huánjìng yě búcuò.

Hozir yashayotgan joyim maktabdan uzoq bo‘lsa ham, lekin ijara haqqi arzon, atrof-muhiti ham yomon emas.

2. 在大商场买东西虽说比较贵,但是质量一般不会有问题。

Zài dà shāng chǎng mǎi dōngxī suīshuō bǐjiào guì, dànshì zhìliàng yìbān bú huì yǒu wèntí.

Katta bozorlarda narsa sotib olish nisbatan qimmat bo‘lsa ham, sifatiga gap bo‘lishi mumkin emas.

3. 哪怕不睡觉,我也要把这本书看完。

Nǎpà bù shuìjiào, wǒ yě yào bǎ zhè běnshū kàn wán

Garchi uxlamasam ham, men bu kitobni o‘qib tugatishim kerak.

4. 哪怕卖掉所有的东西,父母也要给孩子治病。

Nǎpà mài diào suǒyǒu de dōngxī, fùmǔ yě yào gěi háizi zhìbìng.

Garchi hamma narsalarini sotsa ham, ota-ona farzandining kasalini tuzatishi kerak.

5. 每天人都应该遵纪守法,哪怕他是总统。

Měitiān rén dōu yīnggāi zūnníng fǎlǜ, nǎpà tā shì zǒngtǒng.

Har kuni odamlarning hammasi qonunga rioya qilishlari kerak, garchi u prezident bo‘lsa ham.

Solishtiruvchi bog‘lovchilar:

✓ 像 xiàng, 好像 hǎoxiàng, 仿佛 fǎngfú-xuddi;

¹⁰外国人实用汉语语法.-北京. 2009 年.116.页.

- ✓ 如同 rú tóng xuddi, go'yoki; 与其 yǔ qí kō'ra;
- ✓ 像。 。 。 似的 xiàng。 。 。 shì de, 仿佛。 。 。 似的 fǎng fú。 。 。 shì de-xuddi, go'yo;
- ✓ 好像。 。 。 一样 hǎo xiàng。 。 。 yī yàng - xuddi, aniq va boshqalar.

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gaplarda va gaplarning ergashgan qismi bilan qo'llaniladi.

1. 与其说他们是竞争对手,不如说他们是朋友。

Yǔ qí shuō tāmen shì jìng zhēng duì shǒu ,bùrú shuō tāmen shì péngyou.

Ularni raqobatlashayotgan raqiblar degandan ko'ra, yaqin do'stlar deganlari yaxshiroq.

2. 天这么热,与其跑那么远去食堂,还不如在宿舍吃方便面。

Tiān zhème rè yǔ qí pǎo nàme yuǎn qù shítáng, hái bùrú zài sùshè chī fāng biàn miàn.

Uzoqdagi oshxonaga yugirib borgandan ko'ra, o'zimizning yotoqxonada tez tayyorlanadigan lag'mon egan yaxshiroq.

1.2. Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar

Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar 3ta turga bo'linadi.

Sodda bog'lovchilar:

- ✓ 并 bìng, 并且 bìngqǐ - va, ham, va shunga ko'ra;
- ✓ 但 dàn, 但是 dànshì - ammo, biroq, lekin;
- ✓ 或 huò , 或者 huòzh - yoki, yoxud;
- ✓ 为 wèi, 为了 wèile - uchun, o'sha uchun;
- ✓ 因 yīn, 因为 yīnwei - chunki, o'sha sababli;
- ✓ 要 yào , 要是 yàoshì - agar agarda;
- ✓ 虽 suī, 虽然 suīrán – bo'lsa ham, garchi;
- ✓ 像 xiàng, 好像 hǎoxiàng - xuddi, singari va boshqalar. ¹¹

Oddiy bog'lovchilar odatda bir bo'g'inli yoki ikki bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi.

1. 为了让女儿专心工作,老人每天女儿家里帮助作家务。

Wèile ràng nǚ ér zhuān xīn gōngzuò ,lǎorén měitiān nǚ ér jiā lǐ bāngzhù zuò jiāwù.

Qizi e'tiborini ishga qaratishi uchun, qariya qizini uyiga borib uy ishlariga yordam berardi.

2. 为了学汉语,很多外国人来到中国。

Wèilexuéhànyǔ, hěnduōwàiguórénláidàoZhōngguó.

Xitoy tilini o'rganish uchun, judayam ko'p xorijliklar xitoyga keldi.

¹¹外国人实用汉语语法.,北京 2009 年.118

3. 她不吃肉是为了减肥。

Tābùchīròushìwèilejiǎnfēi.

U dieta saqlash uchun go'sht yemaydi.

Murakkab (qo'shma) bo'lovchilar:

✓ 像。。。似的 xiàng。。。shìde, 仿佛。。。似的 fǎngfú。。。shìde-xuddi;

✓ 像。。。一样 xiàng。。。yīyàng, 如同。。。一样 rútóng。。。yīyàng-xuddi.....dek, bir hil va boshqalar.

Qo'shma bog'lovchilar o'zida ikkita ko'makchi so'zlarni qo'shib ko'rsatadi.

1. 在这儿像在自己家里一样。

Zàizhèerxiàngzàizìjǐjiālǐyíyàng.

Bu yer xuddio'zimning uyimdagidek.

2. 他不像你这样聪明,但像你一样勤奋。

Tābùxiàngnǐzhèyàngcōngmíng, dànxiàngnǐyíyàngqínfèn.

U xuddi sendek aqlli emas, biroq xuddi sendek harakatchang.

3. 我不想像他那样做。

Wǒbùxiǎngxiàngtānànyàngzuò.

Men xuddi undek ishlashni xohlamayman.

4. 天上的云白得像一样。

Tiān shàng de yún bái dé xiàng yíyàng.

Osmondagi bulutlar xuddi oppoqdek.

Bog'lovchili birliklar:

➤ 要是。。。话 yàoshì。。。huà, 如果。。。话 rúguǒ。。。huà -o'sha shartga ko'ra, agar;

- 假如。。。时 jiǎrú。。。shí - agar shunday bo‘lsa, agar;
- 因为。。。原故 yīnwei。。。yuángù, 由于。。。缘故 yóuyú。。。yuángù - shu sababga ko‘ra, -ki va boshqalar¹².

Bog‘lovchili birliklar ko‘makchi va muhim so‘zlarni qo‘shib o‘zida ko‘rsatadi.

1. 要是明天天气好的话,我们就去公园。

Yàoshi míngtiān tiānqì hǎo de huà, wǒmen jiù qù gōngyuán.

Agar ertaga ob-havo yaxshi bo‘lsa , biz bog‘ga boramiz.

2.要是努力学习的话,你就一定会考上大学。

Yàoshinǚlìxuéxídehuà, nǐjiùyídìnghuìkǎoshàngàixué.

Agar tirishqoqlik bilan o‘qisang, sen albatta universitetga kirasan.

¹²外国人实用汉语语法.-北京. 2009 年.

1.3. Qo‘llanilishi bo‘yicha hosil bo‘luvchi bog‘lovchilar

Xitoy tilida bog‘lovchilar qo‘llanilishi bo‘yicha 3ta turga bo‘linadi.

Yakka bog‘lovchilar:

- 和 hé, 与 yǔ-va ham;
- 以便 yǐbiàn, 要 hǎo - uchun;
- 即使 jíshǐ - xatto, agar;
- 纵然 zòngrán-maylin, garchi;
- 好像。。。似的 hǎoxiàng。。。shìde-xuddi;
- 如同。。。一样 rútóng。。。yīyàng - xuddi, go‘yo va boshqalar.

Bu bog‘lovchilar mustaqil ishlatiladi. Ular boshqa bog‘lovchilar bilan qo‘shib hosil qilinmaydi.

1. 教学与研究

Jiàoxuéyǎnjiū.

O‘qitish va tadqiq qilish.

2. 成与不成,在此一举。

Chéngyǔbùchéng ,zàicǐyǐjǔ.

Omad va odamsizlik shu qadamga bog‘liq.

3. 要买就买最好的。

Yàomǎijiù mǎizuihǎode.

Agar sotib olmoqchi bo‘lsang eng yaxshisini sotib ol.

4. 要去咱们就早点儿去。

Yàoqù zánmenjiù zǎodiǎnerqù.

Agar boradigan bo‘lsak bizlar ertaroq boramiz.

5. 你要看明胜古迹,北京就有很多。

Nǐ yào kàn míng shènggǔjì, Běijīngjiù yǒu hěnduō.

Sen agar diqqatga sazovor joylarni ko‘rmoqchi bo‘lsang, Pekinda juda ham ko‘p.

Takrorlanuvchi bog‘lovchilar:

➤ 或。。。或 huò。。。huò, 或者。。。或者 huòzhě。。。huòzhě, 还是。。。还是 hái shì。。。hái shì-yoki.....yoki, balki.....balki va boshqalar.

Takrorlanuvchi bog‘lovchilar bir xil bog‘lovchilarni qo‘shib xosil qilinadi.

1. 你或者今天下午来,或者明天上午来,都行。

Nǐ huòzhě jīntiān xiàwǔ lái, huòzhě míngtiān shàngwǔ lái dōu xíng.

Sen yoki bugun tushlikdan keyin kelsang ham bo‘ladi, yoki ertaga tushlikdan keyin kelsang ham bo‘ladi., farqi yo‘q.

2. 今天晚上去看电影,咱们或者坐公共汽车,或者打车,随便。

Jīntiān wǎnshàng qù kàn diànyǐng zánmen huòzhě zuò gōnggòngqìchē, huòzhě dǎchē ,suíbiàn.

Bugun kechqurun kinoga boramiz, bizlar yoki avtobusga o'tiramiz yoki mashinaga, qulay bo'lsa bo'ldi.

Juft bog'lovchilar:

- 因。。。故 yīn。。。gù -chunki.....u holda;
- 要。。。那 yào。。。nà-agar.....u holda;
- 虽。。。但 suī。。。dàn-bo'lsa ham.....biroq;
- 不但。。。而且 bùdàn。。。érqi ,不仅。。。并且 bùjǐn。。。bìngqi -nafaqat.....balki, nafaqat.....va shunga ko'ra;
- 不是。。。而是 bùshì。。。érshì-yo'q.....bo'lsa ham;
- 不是。。。就是 bùshì。。。jiùshì-agar yo'q.....u holda;
- 因为。。。所以 yīnwei。。。suǒyǐ, 为的。。。所以 wèide。。。suǒyǐ -chunki.....u holda;
- 所以。。。因为 suǒyǐ。。。yīnwei, 所以。。。由于 suǒyǐ。。。yóuyú-chunki.....-ki;
- 如果。。。那么 rúguǒ。。。name, 如果。。。则 rúguǒ。。。zé-agar.....u holda;
- 既然。。。那么 jìrán。。。nàme-agar.....u holda;
- 虽然。。。但是 suīrán。。。dànshì,虽然。。。而 suīrán。。。ér, 尽管。。。但是 jǐnguǎn。。。dànshì-bo'lsa ham.....biroq, garchi.....biroq va boshqalar.¹³

Juft bog'lovchilar o'zida turli xil bog'lovchilarni qo'shib ko'rsatadi.

¹³汉语语法考察与分析.-北京. 2001 年.-317.页.

1. 他不但会说英语,而且会说法语。

Tā búdàn huì shuō yīngyǔ, érqiě huì shuō fǎyǔ.

U nafaqat ingliz tilida gapirishni biladi balki fransuz tilida ham gapira oladi.

2. 不但他会说英语,而且他姐姐也会说英语。

Búdàn tā huì shuō yīngyǔ, érqiě tā jiějiě yě huì shuō yīngyǔ.

Nafaqat u ingliz tilida gapira oladi, balki uning opasi ham ingliz tilida gapirishni biladi.

3. 他不但喜欢绘画,而且画得非常好。

Tā búdàn xǐ huan huà, érqiě huàdé fēicháng hǎo.

U nafaqat rasm chizishni yaxshi ko‘radi, balki juda ham yaxshi chizadi.

4. 他不但上过大学,而且出国留学过。

Tā búdàn shàng guò dàxué, érqiě chū guó liúxué guò.

U nafaqat universitetga kirgan, balki chet elda o‘qigan.

5. 不但我会说汉语,而且我妹妹也会说汉语。

Búdàn wǒ huì shuō hànyǔ, érqiě wǒ mèimèi yě huì shuō hànyǔ.

Nafaqat men xitoy tilida gapirishni bilaman balki mening singlim ham xitoy tilida gapira oladi.

6. 你如果参加考试,就早一点儿报名。

Nǐ rúguǒ cānjiā kǎoshì ,jiù zǎo yìdiǎn er bàomíng.

Agar sen imtixonda ishtirok etsang, ertalab ozgina yozib ol.

7. 如果你看望月,就让他来找我。

Rúguǒ nǐ kàn Wàng Yuè, jiù ràng tā lái zhǎo wǒ.

Agar sen Van Yueni ko‘rsang, u holda unga ayt kelib meni topsin.

8. 他每天不是想着怎么学习,而是想着怎么玩儿。

Tā měitiān bú shì xiǎng zhe zěn me xué xí, ér shì xiǎng zhe zěn me wán er.

U har kuni o‘qishni xohlamaydi, ammo o‘ynashni xohlaydi.

9. 弟弟摔倒了,哥哥不是赶快过去扶他起来,而是站在旁边笑。

Dìdìshuāidǎole, gēgebúshìgǎnguàiguòqùfútāqílái, érshìzhànàipángbiānxiào.

Ukasi yeqilib tushdi, akasi shoshilmasdan borib uni turgazib qo‘ydi, biroq turgan joyida kuldi.

10. 飞龙今天没有学习,不是看电视,就是听音乐。

Fēi Lóng jīn tiān méi yǒu xuéxí, bú shì kàn diànshì, jiù shì tīng yīnyuè.

Fey Long bugun o‘qimadi, televizor ko‘rmadi, faqatgina musiqa tingladi.

11. 望月的房间里没开灯,他不是出去了,就是睡觉了。

Wàng Yuè de fángjiān lǐméi kāi dēng, tā bú shì chū qù le, jiù shì shuìjiào le.

Vay Yueni uyida chiroq yoqilmagan u chiqib ketmagan faqatgina uxlayapti.

12. 九号楼不是这座,就是旁边那座。

Jiǔ hào lóu bú shì zhè zuò, jiù shì pángbiān nà zuò.

9 bino bu emas, aynan ana unisi.

Mazkur bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqllovchi va xol gapda uyushiq bo‘laklar bo‘lib kelganda bog‘lovchilar qo‘llaniladi. Bog‘lovchilar bog‘langan qo‘shma gap va ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lashda, shuningdek gapning ergashgan qismida ishlatiladi.

- Bog‘lovchilar ko‘makchi so‘zlar bo‘lib, biriktiruvchi, zidlovchi, bo‘linuvchi, tenglashtiruvchi, biror maqsadli, sabab, to‘siq, munosabatda bo‘luvchi(aloqa), shuningdek o‘xshashlik va bir xillik munosabatlarini bog‘lashda qo‘llaniladigan bog‘lovchilarga bo‘linadi.

- Gap tuzilishida bog‘lovchilarning ahamiyati katta, ayniqsa murakkab gaplarni tuzilishini bog‘lovchilarsiz tasavvur qilish qiyin. Gaplarni bir-biriga

bog'lashda, ularni mazmunli, ma'noli tuzilishga ega bo'lishida ham bog'lovchilarning o'ri beqiyos.

- Xitoy tilida bog'lovchilar asosan 3ta katta guruhni tashkil qiladi. YA'ni: Ma'nosi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar, tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar, qo'llanilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar.

- Ma'nosi bo'yicha hosil qilinuvchi bog'lovchilar 9ta turga bo'linadi. Har bir tur o'zining sintaksis xususiyatiga ega. Bularga biriktiruvchi bog'lovchilar, zidlovchi bog'lovchilar, bo'linuvchi bog'lovchilar, tenglashtiruvchi bog'lovchilar, biror maqsadli bog'lovchilar, sabab bog'lovchilari, shartli bog'lovchilar, to'siq bog'lovchilari, solishtiruvchi bog'lovchilar kiradi.

- Tuzilishi bo'yicha hosil bo'luvchi bog'lovchilar 3ta turga bo'linadi. YA'ni oddiy bog'lovchilar, murakkab (qo'shma) bog'lovchilar va bog'lovchili birliklar.

- Xitoy tilida bog'lovchilar qo'llanilishi bo'yicha 3ta turga bo'linadi. Bular: yakka bog'lovchilar, takrorlanuvchi bog'lovchilar va juft bog'lovchilar.

- Xitoy tilida bog'lovchilarning ahamiyati nafaqat gaplarning tuzilishida balki ularning to'g'ri, ma'noli, mazmunli tarzda tarjima qilinishida ham nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatadi.

- Zamonaviy xitoy tilida hamma relyativ semantik va morfologik o'zgarmaslik xususiyatiga ega yordamchi so'zlarni bog'lovchilar deb hisoblash mumkin. Hamda murakkab sintaktik birliklar qismlari orasidagi yoki oddiy gap tarkibidagi so'z birikmalari, uyushuq so'zlar o'rtasidagi turli-tuman aloqalar va munosabatlarni ifodalaydi va belgilaydi.

- Zamonaviy xitoy tilida bog'lovchilar yordamchi so'z turkumida mustaqil sinflarni tashkil etadi. Tabiiyki shu bilan birgalikda boshqa sinflardan ajralmagan, aksincha ular bilan birgalikda o'zaro harakat qiladi.

- Xitoy tilidagi bog'lovchilarning shakllanishi ma'lum sintaktik sharoitlarda sodir bo'ladi. Bunda bevosita gaplarning strukturasiga bog'liq holda o'z shaklini topadi. Ma'lum turdagi gaplar doirasida paydo bo'ladi va bunda ma'lum turdagi bog'lovchilar shakllanadi.

- Bog'lovchilar gapda mustahkam ma'noga ega bo'lgan birlik emas balki grammatik vositalardan biri, ya'ni ular gapda boshqa leksik-grammatik til vositalari yordamida o'zining ma'nosini amalga oshirish imkoniga ega.

II. BOB. XITOY TILIDA BOG'LOVCHILARNING O'ZIGA XOS GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

